

## TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING TASHKIL TOPISHI

**Karimov Lutfulla Boymurodovich**

*Namangan viloyat. Chortoq tumani 10-maktab Tarix fani o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** *Turkiston general-gubernatorligi (rus. Туркестанское генерал-губернаторство) - ma'muriy hududiy birlik. O'rta Osiyoni bosib olingan hududlarida o'z hukmronligini saqlab qolish va uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa xisoblagani uchun ham boshqaruv sohasida dastlab katta o'zgarishlarni amalga oshirmagan. Shunday bo'lsada yuqori davlat organlari o'z nazoratlariga olib quyi organlarni nazorat qilishgan. Mazkur maqolada Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi va ma'muriy-hududiy tuzulishi nemis adabiyotlaridagi talqini tahlil etilgan.*

**Kalit so'z:** *G'arbiy, farmon, Yettisuv, Mustamlakachilar, mirshablik*

### KIRISH

Rossiya Imperiyasibosib olgan G'arbiy Turkiston hududida Rossiya imperatori Aleksandr II farmoni bilan tashkil etilgan (1867-yil 11-iyul). Xuddi shu yili Turkiston harbiy okrugi ham tuzilgan. Turkistonning birinchi generalgubernatori etib rus podshosining yaqin mulozimi generalad'yutant K.P.fon Kaufman tayinlandi. U 14 yil mobaynida (1867-1881- yillarda) Turkiston o'lkasini qattiqqo'llik bilan boshqargan.

Rossiya imperiyasi o'lkani istilo qilgandan keyin mahalliy xalqlarni mustamlaka istibdodiga soluvchi qonun "Turkiston O'lkasini boshqarish haqidagi Nizom" ni joriy qilgan. Bu qonunga ko'ra mahalliy aholi siyosiy huquqlaridan mahrum etilgan. Chunonchi, ularning vakillari oliy va o'rta lavozimlarga yaqinlashtirilmay, hokimiyat tamomila rus harbiylari va amaldorlari qo'lida to'plangan. Podsho Rossiyasi Turkiston o'lkasini bosib olgach, jahonning eng yirik mustamlakachi davlatiga aylangan. Yevropa va Osiyoning bir qismini o'z ichiga olgan bu imperiya boshqa mustamlakachi davlatlardan farqli ravishda o'ziga xos mustamlakachilik tizimini yuzaga keltirdi. Bunday zo'ravonlik va zulmga asoslangan mustamlakachilik tizimi Turkistonda keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Bu siyosat mahalliy xalqlarga mutlaqo ishonmaslik, ularni nazarga qilmaslik kabi o'ta millatchilik ruhidagi siyosat asosiga qurilgan edi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rossiya imperiyasi bosib olingan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatish va boshqarish uchun mustamlakachilarning manfaatlarini himoya qiladigan mustahkam boshqaruv tartiblarini joriy etish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rgan. Chunki, boshqaruv tizimi Rossiya hukumati uchun juda muhim bo'lib, bosib olingan joylarda mustamlakachilik siyosatini olib borishda asosiy tayanch hisoblangan. Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida "harbiy vaziyat" omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ular yangi

hududlar bosib olinishi bilan, yuzaga kelgan va qoida tarzida "muvaqqat" xususiyatga ega edi. Chunonchi, "Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom" 1867-yili "tajriba tarzida uch yilga" joriy qilindi. Bu Nizomda soliq tizimini izga solish maqsadida xo'jalik boshqarmalarini tuzish belgilab qo'yilgan edi. Undan tashqari, 1868-yilning iyunida "Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari", "Farg'ona viloyatini boshqarish bo'yicha 1873-yil muvaqqat nizom", "Amudaryo bo'limini boshqarish bo'yicha 1874-yil 21-may Nizomi" ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi. bo'lsada, yo'limizda uchragan barcha shahar va qal'alarni kuch bilan olishimizga to'g'ri keldi"

Kavkaz, Boltiqbo'yi o'lkalaridagi ozodlik harakatlarini bostirishda tajribali ma'mur va usta siyosatchi ekanligini ko'rsatgan fon Kaufmanni "Turkistonning Bunyodkori" deb ulug'lashgan. U Toshkentjamoatchiligi vakillari yig'ilishi (1868-yil 22-yanvar)da birinchi bor ruslarni Turkiston xalqlarining "Katta Og'asi" deb atagan. Turkiston 19-asrning boshlarida Britaniya Imperiyasi va Rossiya Imperiyasi orasidatortishuvlarga sabab bo'lgan. Rossiya imperatori fon Kaufmanga o'lkani boshqarishda cheklanmagan huquq va vakolatlar bergan, natijada uni xalq "Yarim Podsho" deb bilgan. Ichki va tashqi siyosatda uning erkin ish yuritishi mumkinligi imperator tomonidan berilgan "Oltin Yorliq"da o'z aksini topgan. 1868-1880-yillar davomida harbiy istilolar natijasida dastlab 2 viloyatdan iborat generalgubernatorlikka yana 3 viloyat qo'shildi. 19-asming oxirlarida Turkiston general-gubernatorligiga Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg'ona va Zakaspiy kabi 5 viloyatdan iborat bo'lib hududi Yevropa Rossiyasining U3 qismiga teng edi. Turkiston general-gubernatorligining barcha hududi 1.779.618 chaqirimga teng bo'lgan. Rossiya hukmdor doiralari Turkistonni imperiyaning tarkibiy qismiga aylantirish va xalqlarini ruslashtirish uchun barcha vositalarni ishga soldi. O'lkadagi siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy va madaniy islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan edi.

Asriy milliy davlatchilikni yo'qotib ruscha idora usulini qo'llash uchun Sankt-Peterburgningoliy siyosiy doiralari qonunlar majmuasini ishlab chiqdi. U tarixga "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom" nomi bilan kirgan. Nizomga ko'ra, o'lka hokimiyati "harbiyxalq boshqaruvi" deb nomlandi. Turkiston general-gubernatorligi viloyatlar(oblasi), tuman (uyezd), jabhalar (uchastka). bo'lislar (volost) va oqsoqolliklarga bo'lindi.

Viloyatlar, tumanlar va jabhalami rus ofitsergenerallari, bo'lis va oqsoqolliklarni esa mahalliy xalq vakillari boshqargan. Viloyatlarga harbiy gubernatorlar, tuman tayinlangan. uyezd boshliqlari, jabhalarga esa uchastka pristavlari

Mustamlakachilar mahalliy boshqaruv idoralariga ma'sul shaxslar tayinlanishida nihoyat hushyor ish tutib, ilg'or, taraqqiyparvar va millatparvar kishilar bo'lis boshqaruvchisi, oqsoqol, yuzboshi yoki qozi sifatida saylanib qolsa, ularni lavozimga tasdiqlamaslik uchun turli hiylanayranglarni ishga solganlar.

Turkistonda mustamlaka idorasi 1898-yilgacha "harbiyxalq", undan keyin esa "ma'muriy politsiya boshqaruvi" deb atalgan bo'lsa ham uning mohiyati mazmunan o'zgarmagan, barcha vakolatlar rus ma'muriyati qo'lida jamlangan.

Turkistondagi siyosiy idora tizimi "tub aholi o'rtasida har qanday norozilikni tagtugi bilan shafqatsiz bostirish, bironbir dushmanlik holati sezilsa, darhol uning kuchayishiga yo'l qo'ymay bo'g'ib tashlash, tartibbuzarlar va ularning maslakdoshlariga tegishli saboq berish va ularga rus qudratini ko'rsatib qo'yish uchun har qanday choratadbirlar ko'rish" ruhi bilan sug'orilgan.

Turkistondagi milliy ozodlik harakatini bo'g'ib tashlash, istiqloq uchun kurashga qodir shaxslarni "zararsizlantirish" rejasi ishlab chiqilib, uni ijro etishga barcha mustamlaka arboblari jalb etilgan.

Rus dvoryanpomeshchiklari o'lkani ruslashtirishning iqtisodiy tomonini ko'zlab, Davlat dumasida Turkiston o'lkasidagi "ortiqcha" yerlarni musodara qilishni yoqlab muxoliflarini siquvga olishgan. 1910-yilning 7-aprelida Davlat dumasi "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom"ning 270-moddasini "Turkiston ko'chmanchilarining ortiqcha yerlarini kolonizatsiya ehtiyojlari uchun" musodara etishga ruxsat beruvchi qo'shimcha bilan to'ldirish masalasini muhokama qildi. Rus mustamlakachi shovinistlari tovushi baland kelib qonun loyihasi qabul qilindi va 1910-yilning 19-dekabrda qonun kuchga kirdi. To'qqiz yil ichida ana shu konunga ko'ra, Sirdaryo-Farg'ona ko'chiruvchilik rayoni bo'yicha tub aholining 744,9 ming desyatina yeri ruslarga taqsimlab berildi. Podshoning musodarachilik siyosati o'ta shafqatsizlik bilan davom ettirildi. Imperiya xukmdor doiralari Turkiston o'lkasi rus va tub aholisi uchun maxsus siyosat dasturini ishlab chikdi. Harbiy mirshablik ruhi Turkiston general-gubematorligi siyosiy tuzumida o'zining yaqqol ifodasini topgan.

#### **XULOSA**

Xulosa qilsak real turmush imperiyaning "taraqqiyot olib kirish" borasidagi rejalaridan ancha murakkab bo'lib chiqdi. O'n minglab kishilar imperiya agressiyasiga qarshi kurashga qo'zg'aldilar. Kaufman rus davlatining manfaatlarini bosqinchilarga qarshi yalpi qattiq kurash sharoitida joriy qilishga majbur bo'ldi. Podsho yorlig'i K.P. Kaufmanga "barcha siyosiy, chegara va savdo-sotiq ishlarini hal qilish, qo'shni mamlakatlarda muzokara olib borish va traktatlarni imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishish" vakolatini berardi. U o'lkadan ayrim shaxslarni siyosiy sabablarga ko'ra besh yilgacha bo'lgan muddatga badarg'a qilish va qarshilik ko'rsatilgan taqdirda, ishni harbiy sudga oshirish huquqiga ega edi. Gubernator aholiga solinuvchi soliqlar miqdorini belgilar, ajnabiylarni rus fuqaroligiga qabul qilar, kreditlarni taqsimlar, shu jumladan, tub aholiga mansub bo'lgan shaxslarga o'lim jazosi berish haqidagi hukmlarni (agar ular qozilik va biylik sudlari tomonidan chiqarilgan bo'lsa) bekor qilish huquqiga ega edi. Rus hukumati o'ziga mustahkam tayanch barpo etish va hukumronligini mustahkamlash maqsadida rus shaharlari va qishloqlarini barpo etishga alohida ahamiyat berdi. Natijada Rossiyaning turli joylaridan Turkiston

o'lkasiga ko'chib keluvchilar soni ortib bordi. XIX asrning oxiriga kelib o'lkadagi ruslar soni 197420 kishiga yetdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Eshov B. O'zbekistonda Davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlodi, 2012. - B. 426.

2. Sodiqov H., Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. - T.: Sharq, 2011. - B. 122.

3. Bedauerlicherweise war dem Autor nur die Übersetzung in Schmeidler zugänglich und keiner der Verträge im russischen Original; deshalb wird im folgenden der Vertrag mit dem Khanat Khokant nach Schmeidler, Das Russische Reich, S. 466f. zitiert. Bei Bennigsen wird der Vertrag nur nebenbei, ohne genauer auf seinen Inhalt einzugehen, erwähnt; vgl. Alexandre Bennigsen, Die Türken unter der Zaren- und Sowjetherrschaft, in: FW, Bd. 16, S. 212

4. Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областей. - СПб., 1867, - С. 47-48.

5. Бартольд В. В. Сочинения II том. Общие работы по истории Средней Азии, работы по истории кавказа и восточной Европы. - Москва, 1963. - С. 350

6. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. - T.: Yangi asr avlodi, 2012. - B. 423.

7. Das Vordringen des zaristischen Rußlands nach Zentralasien und der Aufbau der russischen Verwaltung von 1865 bis 1890.-B.:54